

## MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA ROLLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

**Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna**

Farg‘ona Davlat Universiteti Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi,

**Sobirova Azizaxon Maribjon qizi**

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalarning psixik rivojlanishida rolli o‘yinlarning bevosita va bilvosita ta’sirlari, qanday rollar bolalar uchun ijobjiy ta’sir etishi atroficha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** rolli o‘yin, bolada tafakkurning shakllanishi, his-tuyg‘udagi o‘zgarishlar, roli o‘yinlarda predmetlarning ta’siri.

Rolli o‘yin – hayotdagi mavjud bo‘lgan insonlar va harakatlarni obrazli tarzda aks ettirishdir. Rolli o‘yin bu yosh davridagi bolalarning muhim faoliyati hisoblanib, ular rolli o‘yinda katta yoshdagi insonlarning barcha ishlarini amalda bevosita “bajaradilar”. Shu sababdan o‘yin uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalarini birlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladi. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘usini, o‘zaro muomala va muloqtlarning xususiyatlarini, o‘zgalarga va atrofidagi insonlarga munosabatini rolli o‘yinlarda ijro etish orqali ifodalaydi. Buning uchun turli o‘yinchoqlardan va predmetlardan foydalanadilar. Bolalarning rolli o‘yinlarini kuzatish davomida oilada kim unga ijobjiy, kim salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglab olish mumkin. Sababi bola atrofida bo‘layotgan voqelikka ro‘yu-rost munosabat bildiradi. Rolli o‘yin bolalarda tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi. L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananев, D.B.Elkonin va boshqa ko‘plab olimlar bolaning bilish jarayonlari rivojlanishida rolli o‘yinlarning ahmiyatini o‘rgangan.

N.M.Aksarinaning fikricha, o‘yin faoliyati o‘zidan-o‘zi vujudga kelmaydi, buning uchun quyida uchta vosita bo`lishi kerak:

- 1) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to`g`risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi;

2) har xil ko`rinishdagi o`yinchoqlar va tarbiyaviy ta`sir vositalarining muhayyoligi;

3) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi.

Psixolog Ye.A.Arkin o`yinlarni quyidagicha tasnif qilgan:

1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, kasbhunarga oid o`yinlar;

2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro`zg`or: bog`chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o`yinlar;

3) harbiy : urush-urush o`yinlari;

4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o`yinlar.

D.B.Elkonin harakatli o`yining qoidalari mazmuni o`zaro bog`liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish; 2) muayyan syujetni drammalashtirilgabilann o`yinlar; 3) syujeti oddiy o`yinlar; 4) syujetsiz qoidalari o`yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o`yinlari.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mustaqil fikrlash. Karimova V.M, Sunnatova R.I, Tojiboyeva N. T.2000.
2. Ibrokhimjonovna T. N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.
3. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99.
4. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna// The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences.January 10 th,2022.69-70

**Research Science and  
Innovation House**